

IMRS

Institute for Macroeconomic
and Regional Studies



**Sug'urta faoliyati sohasidagi
munosabatlarni hamda sug'urta
bozorini takomillashtirish chora-
tadbirlari natijadorligini tahlil
qilish**

**Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti**

Jasur Jalolov
Loyiha rahbari

Mundarija

<i>Umumiy sug'urta bozori</i>	3
Bozor hajmi	3
Sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasi	4
Sug'urta bozori ishtirokchilari	4
Bozor konsentratsiyasi	5
<i>Qayta sug'urta</i>	5
Milliy qayta sug'urta bozori	5
<i>Umumiy sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi qonunchilik bazasi</i>	6
Majburiy sug'urtalar	7
Birlamchi majburiy sug'urta ro'yxati	7
Qonunchilikdagi o'zgarishlar	8
Investitsiya qoidalari	8
<i>Tarqatish kanallari</i>	9
Sug'urta agentlari	9
<i>Ilova: Umumiy sug'urta bozori statistikasi</i>	10

Umumiy sug'urta bozori

O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar va o'sish kuzatilmoqda. E'tiborlisi, 2022-yilda Turk dunyosi sug'urta ittifoqining tashkil etilishi sug'urta faoliyatida turkiy tilli davlatlar hamkorligida burilish yasadi. O'zbekiston Respublikasida sug'urta toifalari turlicha bo'lib, mulkni sug'urtalash umumiy sug'urta ichida keng tarqalgan tur hisoblanadi. O'zbekiston sug'urta bozori tabiiy ofatlarga nisbatan zaif bo'lishiga qaramay, so'nggi paytlarda yuzaga kelgan tabiiy ofatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarga chidamlilik bilan javob berib kelmoqda.

2022- yilda sug'urta to'g'risida yangi qonun qabul qilinishi raqamli transformatsiya bo'yicha muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari, Islom moliyaviy xizmatlarga, jumladan, takaful sug'urtasiga qiziqish ortib bormoqda.

Bozor hajmi


Axco Global statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda O'zbekiston umumiy sug'urta bozori jahonda Gruziyadan keyingi 108-o'rinni egalladi. Markaziy Osiyoning beshta davlatidan faqat Qozog'iston yuqoriroq (65-o'rin) ni egallagan.

1-jadval: 2022 yilda bozorning umumiy hajmi quyidagicha bo'lgan

	Hayot	Umumiy sug'urta	Jami Bozor
Sug'urta mukofotlari (mln so'mda)	1,524,679	4,707,047	6,231,726
Foizda (%)	24	76	100.00


Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida.

Baxtsiz hodisalar va sog'liq sug'urtasi sug'urta kompaniyalari tomonidan hayotni sug'urtalash mahsulotlariga qo'shimcha umumiy sug'urta kompaniyalari tomonidan ham yozilishi mumkin va ular O'zbekistonda umumiy sug'urta klassi hisoblanadi.



1-rasm: Sug'urta turlari bo'yicha bozorning o'sishi
Manba: Axco Global statistika ma'lumotlari asosida.

O'tgan davr mobaynida milliy valyutadagi sug'urta mukofotlarining o'sishi 2019 yilda 52,85%, 2020 yilda -4,69% va 2022 yilda 56,15% ni tashkil qilgan. 2020-yilda o'sish darajasi o'tgan yillarga nisbatan nisbatan pastroq bo'lgan, bu ko'p jihatdan COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy ta'siri bilan bog'liq. 2021 yil oxiriga kelib, umumiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari 60,46 foizga o'sgan.



2- rasm: Umumiy sug'urta bozorining tuzilishi
Source: Axco global statistika ma'lumotlari asosida

Rasmiy sug'urta statistikasi O'zbekistonda majburiy va ixtiyoriy sinflarga bo'lib, alohida biznes klasslari kesimida taqdim etiladi. 2022-yil yakuniga ko'ra, majburiy sug'urta mukofotlari 10 foizni, ixtiyoriy sug'urta mukofotlari esa 90 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda biznes-klass bo'yicha sug'urta mukofotlarini tahlil qilish qiyin, chunki ba'zi klasslar "ikki yoki undan ortiq toifani" o'z ichiga oladi bunga mol-mulk, qurilish va avtomobil toifalarini kiritish mumkin.

Sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasi

2022 yil uchun sug'urta turlari bo'yicha jami sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi va umumiy aholiga nisbatan jon boshida ko'rsatilgan o'rtacha sug'urta turlari bo'yicha xarajatlar O'zbekiston, Qozog'iston, Turkiya va Tojikiston kabi davlatlar bilan taqqoslangan holda quyida 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Sug'urta bilan ta'minlanganlik darajasi

	Hayot		Umumiy sug'urta		Baxtsiz hodisa va sog'liq		Jami	
	%	jon boshiga AQSH dollarida	%	jon boshiga AQSH dollarida	%	jon boshiga AQSH dollarida	%	jon boshiga AQSH dollarida
O'zbekiston	0.17	3.91	0.52	12.09	0.01	0.28	0.70	16.28
Qozog'iston	0.27	31.24	0.50	58.52	0.09	10.14	0.86	99.90
Turkiya	0.21	21.85	1.13	119.71	0.23	24.52	1.57	116.08
Tojikiston	-	-	0.26	2.79	-	-	0.26	2.79

Manba: Axco Global statistika ma'lumotlari asosida


Markaziy osiyo davlatlari kesimida qaralganda ham O'zbekiston sug'urta bozori umumiy aholiga nisbatan taqqoslaganda kichik hisoblanadi. Bozorda kuchli o'sish sur'atlarini ta'minlashda ko'p jihatdan ko'chmas mulk va qurilish biznesi muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta bozori ishtirokchilari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi reestrda 41 ta sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, ulardan 33 tasi umumiy sug'urta 8 tasi hayot sug'urtasi bo'yicha xizmatlarni taklif etadi.

2023-yilning birinchi choragida jami yozilgan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchta yirik davlat sug'urta kompaniyasi – "O'zbekinvest", "Kafolat", "O'zagrosug'urta" bozorning 36,3 foiz umumiy ulushi bilan mos ravishda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi yirik sug'urta kompaniyalari bo'ldi. 2016-yilda ular 50% dan ko'proq bozor ulushiga ega bo'lgan.

2022 yilda umumiy sug'urta faoliyatidagi aktivlari bo'yicha eng katta sug'urta kompaniyalari quyidagilar hisoblanadi.



3-rasm: Aktivlari bo'yicha eng katta sug'urta kompaniyalari
Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida

Bozor konsentratsiyasi

Umumiy sug'urta sohasida faoliyat olib boruvchi kompaniyalarning bozor ulushi 3-jadvalda keltirib o'tilgan. Top - 10 kompaniyalarning umumiy bozordagi ulushi yillar mobaynida kamayib bormoqda, bu O'zbekistonda umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta kompaniyalari soni 2016 yildagi 23 tadan 2022 yilda 33 taga oshganidan dalolat beradi.

3-jadval: Bozor ulushi bo'yicha kompaniyalarning taqsimlanishi

Bozor ulushi	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Top 5 kompaniyalar	58,67	58,91	57,05	59,34	63,02	61,96	57,44	60,24	52,53	46,02	53,56
Top 10 kompaniyalar	81,38	81,92	79,97	79,62	84,43	82,85	80,92	78,73	68,55	68,99	72,31

Manba: Axco Global statistika ma'lumotlari asosida

Qayta sug'urta

Milliy qayta sug'urta bozori

O'zbekistonda milliy qayta sug'urtalash kompaniyalari mavjud emas. To'g'ridan-to'g'ri litsenziyalangan yirik sug'urtalovchilarning bir nechtasi qayta sug'urtalovchi sifatida harakat qilish uchun yetarli darajada kapitallashtirilgan. Bunday kompaniyalar fakultativ qayta sug'urtalashni taklif qilishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli Farmoniga muvofiq valyuta liberalizatsiyasidan so'ng, milliy sug'urta kompaniyalari qayta sug'urta shartnomalarini sotib olish uchun xorijiy valyutani erkin sotib olishlari mumkin bo'ldi. Bu milliy sug'urtachilarning xalqaro qayta sug'urta bozorlaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishi va istagining oshishiga olib keldi.

Milliy yirik sug'urta kompaniyalari hozirda ko'plab brokerlar va qayta sug'urtalovchilar bilan ishlaydi. Axco kompaniyasining O'zbekiston sug'urta bozori hisobotida yozilishicha, 2018-yilda milliy kompaniyalar qayta sug'urtalash orqali joylashtirgan xavflarning aksariyati Buyuk Britaniya (58%), Rossiya (9%), Janubiy Koreya (8%), Ozarbayjon (6%), BAA (4%), Xitoy (3%), Germaniyada (2%), Shveysariya (2%), Fransiya (1%) va boshqa mamlakatlar (6%) to'g'ri keladi.

2019-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PQ-4412 sonli sug'urta bozorini rivojlantirishga ko'maklashish to'g'risida Qarori imzolandi. Ushbu qaror milliy qayta sug'urta kompaniyasini ochish va xorijiy qayta sug'urta brokerlarining O'zbekistonda ishlash uchun tegishli sertifikatga berilishini ta'minlaydi.

Qarorda qayta sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchilarga quyidagicha ustav kapitali bo'yicha majburiyat qo'yilgan:

- 2020-yil iyulidan: 35 milliard so'm;
- 2022-yil iyulidan: 45 mlrd. so'm.

Ko'pgina kichik kompaniyalar o'zlari sug'urta qilgan risklarni saqlab qolishadi va qayta sug'urtalashdan foydalanmaydilar. Ammo mulk kabi katta risklar ko'pincha qayta sug'urtalovchilarga beriladi. O'zbekistonda davlat qayta sug'urtalovchi kompaniyasi yo'q. Lekin davlatga qarashli yirik kompaniya – "O'zbekinvest" ma'lum bir qisimdagi qayta sug'urtalashni o'z zimmasiga oladi.

Umumiy sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi qonunchilik bazasi

O'zbekistonda 2022-yil 25-fevralda O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangi sug'urta qonuni joriy etildi. Bu 2002-yil 28-mayda qabul qilinib, 2022-yil 24-fevralgacha amalda bo'lgan eski qonun o'rnini egalladi.

Prezident farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligining ko'rsatmalari kabi boshqa qoidalar ham ushbu asosiy qonunni qo'llab-quvvatlaydi. So'nggi o'n yil ichida O'zbekiston sug'urta imkoniyatlarini kengaytirish va kompaniyalarning yetarli mablag' jamg'arishini ta'minlash ustida ishladi. Onlayn sug'urta va pul yuvishga qarshi qoidalar kabi o'zgarishlarni joriy qilish uchun bir qator yangi qonunlar ishlab chiqildi. Sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha soliq solishda hozirgi kunda imtiyozlar ham mavjud.

4-jadval: Umumiy sug'urta sohasini ta'rtibga soluvchi huquqiy baza

Me'yoriy huquqiy hujjatlar	Kuchga kirgan sana	Maqsad
256-I-son Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – II qism)	1997 yil 1 mart	52-bob sug'urta faoliyatini tartibga soladi.
Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 413-son qarori	2002 yil 27 noyabr	Sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari uchun maxsus litsenziyalash tartibini belgilaydi.
Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida 41-son buyrug'i	2008 yil 22 may	To'lov qobiliyati talablarini tartibga soluvchi asosiy nizom.
Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizomni	2008 yil 25 dekabr	Zaxira talablarini tartibga soluvchi asosiy nizom.

<i>tasdiqlash to'g'risida 107-son buyrug'i</i>		
<i>Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishning yagona standartlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida 120-son buyrug'i.</i>	2009 yil 7 fevral	Sug'urtalovchilar uchun majburiy bo'lgan umumiy standartlarni o'rnatadi, jumladan, oshkor qilish, muhim faktlarni bayon qilish, terminologiyadan foydalanish, ta'riflar va ba'zi muvofiqlik masalalari.
<i>Sug'urta faoliyatiga ruxsat berishning ayrim turlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida 298-son qarori.</i>	2013 yil 11 noyabr	Sug'urta kompaniyasini qayta tashkil etish, xorijiy davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar, sug'urtalovchini moliyaviy sog'lomlashtirish.
<i>Prezidentning PQ 4412-sonli "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini hisobot berish va jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.</i>	2019 yil 3 avgust	Sug'urta qonunlari va qoidalarini isloh qilish orqali bozorni rivojlantirish rejalarini belgilaydi. 2020-yil 1-iyul va 2022-yil 1-iyulda Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasi (Davlat nazorati inspeksiyasi) o'rniga yangi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligini tashkil etishni ma'qullaydi, shuningdek (qayta) sug'urtalovchilar uchun kapitalning eng kam chegaralarini bosqichma-bosqich oshiradi.
<i>Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-4611-sonli Prezident qarori</i>	2020 yil 25 fevral	2021-yil yanvar oyidan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va yirik soliq to'lovchilar uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) joriy etiladi.
<i>Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayotni sug'urtalash sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-5265-sonli Prezident qarori</i>	2021 yil 23 oktyabr	Sug'urta bozorini raqamlashtirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar, shuningdek baxtsiz hodisalar, hayot va xususiy tibbiy sug'urta rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun soliq o'zgarishlarini kiritadi.
<i>Sug'urta faoliyati to'g'risida O'RQ-730-son Qonuni</i>	2022 yil 25 fevral	Yangi asosiy sug'urta qonuni (qayta) sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari va sug'urta bozorining boshqa ishtirokchilari faoliyatini qamrab oladi. 2002 yil 28 maydagi 358-II-son Qonun bilan almashtirildi.

Ixtiyoriy sug'urta klasslari uchun stavkalar belgilanmaydi: sug'urtalovchilar bizneslar uchun o'zlari ma'qul ko'rgan tijoriy stavkalarni belgilashlari mumkin.

Majburiy sug'urtalar

Birlamchi majburiy sug'urta ro'yxati

1. Avtotransport vositasining uchinchi shaxs javobgarligi;
2. Ish beruvchilarning javobgarligi;
3. Tashuvchilarning uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi;
4. Xavfli ob'ektlar uchun uchinchi shaxslar va ekologik javobgarlik;
5. Kasbiy majburiyatlar, jumladan, auditorlar, rieltorlar va boshqalar;
6. Energetika, konchilik, harbiy va favqulodda xizmatlar kabi tarmoqlar uchun davlat sug'urtasi;
7. Xavfli yuklarni tashish, ekologik jihatlar va mulkiy qimmatli qog'ozlar bo'yicha majburiyatlar;
8. Turist, eksport shartnomasi va klinik sinov sug'urtasi.

2022-yil avgust oyidan boshlab majburiy sug'urta qoplamalari bo'yicha sug'urtalovchilar ochiq tender orqali tanlanadi. Bu xususiy sug'urtalovchilarga tender o'tkazilgandan so'ng davlat xizmatchilarining majburiy sug'urta ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Asosiy majburiy sug'urtalar **avtotransport vositalari, ish beruvchilar, tashuvchilarning majburiyatlari va xavfli ob'ektdagi baxtsiz hodisalar uchun javobgarlikni** o'z ichiga oladi. Vazirlar Mahkamasi bu turdagi sug'urta faoliyati uchun qonun hujjatlarida belgilangan chegaralari va tariflarini alohida belgilaydi.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-dekabrda **694-sonli qarori** elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish va raqamli sug'urta polisini ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini belgilaydi. Asosiy shartlarga quyidagilar kiradi:
 - 2022-yil 31-dekabrgacha sug'urta polislarini ro'yxatdan o'tkazish uchun yagona axborot tizimi;
 - 2023-yil 1-martgacha yo'l-transport hodisalar haqida onlayn xabar berish uchun mobil ilova;
 - 2023-yil 1-iyulgacha barcha sug'urta turlari bo'yicha da'volarni onlayn yuborish va ko'rib chiqish imkoniyatlari.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi **PQ-4412-sonli** qarorga ko'ra sug'urta kompaniyalari uchun 2020-yil 1-iyuldan boshlab ustav kapitali quyidagicha etib belgilandi.
 - Ixtiyoriy sug'urta taklif qiladigan kompaniyalar: 15 mlrd. so'm;
 - Majburiy sug'urtani taklif qiluvchi kompaniyalar: 25 mlrd. so'm;
 - Faqat qayta sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar: 35 mlrd. so'm.

2022-yil 1-iyuldan boshlab esa:

- Ixtiyoriy sug'urta kompaniyalari: 20 milliard so'm;
- Majburiy sug'urta kompaniyalari: 35 milliard so'm;
- Qayta sug'urta kompaniyalari: 45 mlrd. so'm.

Investitsiya qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 22-apreldagi **41-sonli** buyrug'iga asosan hayotdan tashqari sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi kompaniyalar uchun aktivlarni investitsiya qilish bo'yicha talablar quyidagicha belgilangan:

5-jadval: Sug'urta kompaniyalarining aktivlarini investitsiyaga yo'naltirish talablari

Egalik shakli	Maksimum kvota (%)
Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari, jami (banklardan tashqari)	50
Bitta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari (faoliyati sug'urta yoki chambarchas bog'liq bo'lgan yoki sug'urtalovchi egallab turgan mol-mulki boshqarish bo'lgan hamkor jamiyatlar bundan mustasno): bu har qanday kompaniyaning maksimal 30 foizini tashkil qiladi.	30
Jami ko'chmas mulk (ko'chmas mulk), shu jumladan har bir ko'chmas mulk ob'ekti	50
Har qanday tijorat bankidagi bank depozitlari	40
Kredit agentliklarida (banklar bundan mustasno) jami depozitlar, sug'urtalovchining jami aktivlarining foizi	10
Sug'urtalovchining bir kompaniyadagi ulushi yoki boshqa ishtirok huquqlari, sug'urtalovchining umumiy aktivlarining foizi	30
Aksiyadorlarga, ish beruvchilarga sug'urta polisleri bilan kafolatlangan kreditlar: sug'urtalovchining ustav kapitalining foizi	10

Manba: Axco global sug'urta statistikasi ma'lumotlari

Tarqatish kanallari

Sug'urta polislarini sotishda foydalaniladigan tarqatish kanallari orqali sotilgan umumiy sug'urta faoliyati bo'yicha sug'urta mukofotlar haqida rasmiy statistik ma'lumotlar yo'q. Quyida (6-jadval) so'nggi uch yil davomida sug'urta polislarining tarqatish kanallarini ulushi keltirib o'tilgan.

6-jadval: Sug'urta polislarining tarqatish kanallari

Tarmoq	2019	2020	2021
Agent (%)	60	60	60
To'g'ridan-to'g'ri (%)	36	34	32
Internet (%)	3	5	7
Broker (%)	1	1	1
Jami	100	100	100

Manba: Axco global sug'urta statistikasi ma'lumotlari

Taqdim etilgan ushbu jadval to'g'ridan-to'g'ri kanallar sug'urtalovchilarning o'z savdo bo'limlari va filial xodimlarini qamrab oladi. Agentlar jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lishi mumkin, masalan, sayohat agentliklari yoki boshqa sug'urta kompaniyalari. 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kuzatilgan davr mobaynida sug'urta kompaniyalari agentlar va to'g'ridan-to'g'ri sotuvlar kanalidan barqaror foydalaniladi. Onlayn sug'urta savdosi o'sib bormoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5265-sonli qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-iyuldan boshlab barcha sug'urta polislarini onlayn xarid qilish mumkin.

Sug'urta brokerlari ham ommalashib bormoqda. Hozirda mamlakatda oltiga yaqin brokerlik kompaniyasi mavjud.

Sug'urta agentlari

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra O'zbekistonda 9500 ga yaqin sug'urta agentlari mavjud. Ushbu agentlarning aksariyati o'zlari qilgan savdo ulushi orqali to'lanadi. 2022 yilgi O'RQ-730-sonli sug'urta qonuni va boshqa qoidalarda ushbu agentlar qanday ishlashi kerakligi haqida ko'rsatmalar keltirib o'tilgan, masalan, agentlar o'z ulushi sifatida jami sug'urta narxining 25% dan ortig'ini ololmaydi.

Bundan tashqari qonunda aytilishicha, sug'urta kompaniyalari odamlar yoki biznes bo'lishi mumkin bo'lgan agentlari ro'yxatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu agentlarga maxsus litsenziya kerak emas va ularning ishidagi xatolardan himoyalaniş talab etilmaydi. Agentlar asosan odamlarga shaxsiy sug'urta yoki kichik biznes sug'urtasini sotib olishga yordam beradi.

Ilova: Umumiy sug'urta bozori statistikasi

7-jadval: Umumiy sug'urta mukofotlari

Ko'rsatkichlar	31.12.2018		31.12.2019		31.12.2020		31.12.2021		31.12.2022	
	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da
Jami	1 635 206	100%	2 313 904	100%	2 213 713	100%	3 732 023	100%	6 231 725	100%
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	1 221 764	75%	1 736 285	75%	1 890 844	85%	3 014 983	81%	4 707 047	76%
- majburiy sug'urta	249 539	15%	298 098	13%	338 036	15%	476 333	13%	491 276	8%
- ixtiyoriy sug'urta	972 225	59%	1 438 187	62%	1 552 808	70%	2 538 650	68%	4 215 771	68%

Manba: O'zbekiston respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida.

8-jadval: Sug'urta to'lovlari

Ko'rsatkichlar	31.12.2018		31.12.2019		31.12.2020		31.12.2021		31.12.2022	
	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da	mln. so'mda	jamiga nisbatan %da
Jami	460 818	100%	813 510	100%	737 588	100%	1 235 061	100%	2 596 926	100%
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	198 125	43%	286 681	35%	423 995	57%	618 761	50%	1 098 782	42%
- majburiy sug'urta	67 996	15%	90 223	11%	127 994	17%	182 399	15%	232 813	9%
- ixtiyoriy sug'urta	130 129	28%	196 458	24%	296 001	40%	436 362	35%	865 969	33%